

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.A.Saparbayerova	
Madaniyat va san'at instituti talabalarining havaskorlik ssenariylar yozish qobiliyatini shakllantirish.....	313
H.M.Asadov	
Mavzu, mazmun va lirik qahramon talqini	318
A.A.Yarkulov	
Arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiyalash to'g'risida ba'zi mulohozalar	322
H.A.DJurayev, N.N.Nabiyeva, Sh.F.Latipov	
Abdulla Qodiriy ijodida teatr san'atining o'rni	329
J.DJ.Ashurov, E.X.Bozorov	
Oliy ta'lim muassasalarida "Yadro tibbiyotida radiatsion xavfsizlik" mavzusini o'qitishda muammoli vaziyat metodini qo'llash	332
D.M.Yuldasheva, S.S.Nishonova	
Bolalar ertak matnlarining kognitiv-semantik xususiyatlari.....	336
M.I.Imomaliyeva	
Amiriy ijodida Yusuf obrazi.....	339
G.M.Qosimova, M.I.Ne'matova	
Inson tabiati va xarakterini ifodalovchi frazeologizmlarning semantik xususiyatlari.....	343
N.Maqsudov	
Yoshlar huquqiy ongi va madaniyatini oshirish – demokratik davlatning muhim belgisi	345
S.A.Olimjonov	
Erix Mariya remarkning "Uch og'ayni" romanida ifoda va talqin	347
Z.A.Akbarova, N.Mamasoliyeva	
O'zbeklar olam Lisoniy manzarasida "Sabr" konsepti.....	351
I.S.Mannopov	
Xoja Ahmad Yassaviy ijodida munozara janri	354

ABDULLA QODIRIY IJODIDA TEATR SAN'ATINING O'RNI

РОЛЬ ТЕАТРАЛЬНОГО ИСКУССТВА В ТВОРЧЕСТВЕ АБДУЛЛЫ КАДИРИ

THE ROLE OF THEATER ART IN ABDULLA QADIRI'S CREATION

Jurayev Habibullo Abdusalomovich¹, Nabiyeva Nigora Nodirjon qizi²,
Latipov Sherzodbek Foziljon o'g'li³

¹Jurayev Habibullo Abdusalomovich

– Farg'ona davlat universiteti professori

²Nabiyeva Nigora Nodirjon qizi

– Farg'ona davlat universiteti magistranti

³Latipov Sherzodbek Foziljon o'g'li

– Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek romanchilik maktabining asoschisi, mohir publitsist, 300 ga yaqin felyetonlar muallifi Abdulla Qodiriyning teatr xususidagi qarashlari, ayrim dramalarga munosabati va bu sohadagi izlanishlari yoritilgan. Shuningdek, hozirda mavjud bo'lgan Qodiriy maqolalari va feletonlarida teatr san'ati istiqboli, uning shaxs filogenezidagi o'rnini, jamiyatdagi mavqei to'g'risida qimmatli ilmiy- nazariy qarashlari bayon etilgan.

Аннотация

В статье освещаются взгляды Абдуллы Кадири, основоположника узбекской школы романов, искусного публициста, автора около 300 фельетонов, его отношение к некоторым драмам, исследования в этой области. Также в имеющихся на сегодняшний день статьях и фельетонах Кадири изложены ценные научно-теоретические взгляды на перспективу театрального искусства, его место в филогенезе личности, положение в обществе.

Abstract

In this article, the views of Abdulla Qadiri, the founder of the Uzbek school of novels, a skilled publicist, the author of about 300 feuilletons, his attitude to some dramas, and his researches in this field are covered. Also, in the currently available articles and feuilletons of Qadiri, valuable scientific-theoretical views on the perspective of theater art, its place in the phylogeny of the individual, and its position in the society are stated.

Kalit so'zlar: dramatik tur, pyesa, maqola, feleton, jadid, teatr, obraz, badiiy mahorat.

Ключевые слова: драматический тип, пьеса, статья, фельетон, модерн, театр, образ, художественное мастерство.

Key words: dramatic type, play, article, feuilleton, modern, theater, image, artistic skill.

KIRISH

Qadimdan san'at insonni ezgulikka, ruhiy-ma'naviy olamini yuksaltirishga xizmat qilgan. Xususan, so'z san'atida inson dunyoqarashi, his-tuyg'usi tasviri so'z orqali kechadi va uning insonga ta'sir etish doirasi ham yuksak baholanadi. Aristotelning "Poetika" asarida so'z san'ati voqelikni qay tarzda tasvirlashiga ko'ra uch turga: epos, lirika, dramaga bo'linadi. Bulardan dramada hodisa hozir sodir bo'layotgandek tuyuladi. Dramaning tasvir predmeti harakat. Drama obyektning plastik obrazini yaratadi, unda subyekt-ijodkor shaxsi ham obyektga singdirib yuboriladi. Drama adabiyotga ham teatr san'atiga ham birdek taalluqli: uni o'qib ham qabul qilish mumkin, ayni chog'da u teatr asari-spektaklning asosi [1] hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Edvort Olvortning "Birinchi o'zbek dramasi" nomli maqolada o'zbek xalqining ulug' adiblaridan biri, jamiyatning turli sohalarida faoliyat ko'rsatgan Abdulla Qodiriy ushbu janr, xususan, teatr san'ati haqida ham o'z qarashlariga ega bo'lganligi xususida fikr yuritilgan[2]. Mohir publitsistik, felyeton qiroli bo'lgan Qodiriy "Eski shahar havaskorlariga", "Bizda teatru ishining borishi" maqolalari "Bozor surishtirmaydir" feletoni orqali Turkistonda qo'yilayotgan dramalarning kamchiliklarini hamda o'z tavsifalarini ko'rsatib o'tadi.

MUHOKAMA

1919-yil "Ishtirokiyun" gazetasidagi "Bizda teatr ishining borishi" maqolasida "Teatr turmushdagi yetishmagan va oriqcha yerlarni ko'z oldimizga mujassam etib ko'rsatuvchi bir oynadir. Ish shundog' ekan, biz ham teatrimizni ko'rganda, turmushimizning aksini ko'rmagimiz kerakdir." [4] deya teatr mohiyati va unda qo'yiladigan asarlar xususiyati haqida yuqoridagi fikrlarni bildiradi. Malumki, Turkistonda teatr dastlab tatar qardoshlar tomonidan ijro etilgan va bunga nisbatan Qodiriy "bizim turmushimizdan chetdaroq bir ruhdagi asarlar" deya baho beradi va shu sababdan yerli

yoshlarni jalb eta olmaganligi ko'rsatiladi. Jadid adabiyotining asoschilaridan bo'lgan Behbudiy Markaziy Osiyo ijodkorlari orasida birinchi milliy dramatik asar yaratdi. Ungacha mazkur hududda na turkiy, na forsiy tilda drama janrida birorta asar yaratilmagan edi. Bu Behbudiyning adabiyotga qo'shgan eng katta hissasi bo'ldi. Bundan tashqari u o'z vatandoshlariga til jihatidan ham, shakl jihatidan ham uncha murakkab bo'lmagan, yangi sharoit va muhitga mos keladigan nasr namunalarini yaratdi. Behbudiy davri uchun bu katta hodisa edi. "Padarkush" dramasi tarbiyabiy-ma'rifiy ruhda ilk zamonaviy pyesa sifatida mashhur bo'lib ketdi. Qodiriy yuqoridagi maqola davomida "Mana shundan so'ng bizda teatr masalasi bosh ko'tardi" deb e'tirof etdi. Darhaqiqat Behbudiyning bu asari keyingi yaratiladigan dramalar uchun asos bo'lib, pyesalar namoyishi uchun maktab bo'ldi. Ijodini she'riyat bilan boshlagan Qodiriy bu vaqtga kelib, nasriy asarlari, publististik maqolarini e'lon qila boshladi. Birin- ketin "Baxtsiz kuyov" pyesasi, "Juvonboz" hikoyasini yozadi. 1915-yili "Sadoyi Turkiston" gazetasida bosilgan ilk sahna asari yozilishini quyidagicha izohlaydi. 1913-yilda chiqqan "Padarkush" (1911-yilda yozilgan) ta'sirida "Baxtsiz kuyov" degan teatr kitobini yozib, yuborg'animni o'zim ham payqamay qoldim. (1926-yil 15-17 iyunda bo'lib o'tgan sudda nutqidan.) [5] Bu dramada boshqa shaxslarning qistovi sababli o'zi kambag'al bo'lishiga qaramay katta to'y qilib qarzg'a botgan Solihning holati va o'z joniga qasd qilishi tasvirlanadi. Fayziboy qizini yetim va kambag'al Solihga berish uchun ko'p qalin va katta to'y so'raydi. Qoloq, fikrli, sharia'ti islomni to'liq anglab yetmagan, domla-imom ham Fayziboyga sherik bo'lib, uning rayini qatarmaydi. Yangi fikrli ellikboshini esa so'zlariga hech kim quloq tutmaydi. Amakisi Abdurahim ham yetim va kambag'al jiyan Solihni "baxti" yo'lida shartlarni qabul qiladi. Sovchikdan "To'n kiyib" qaytgan Abdurahimning lafzi tufayli Solih ilojsiz to'yga rozilik bildiradi. Boy qo'lida oddiy ishchi bo'lib ishlaydigan Solih to'y uchun sudxo'r boydan qarz oladi. Qarzlarni qaytarish muddati yetganda Solih ilojsiz qoladi, uyini sotib, ko'chada qolishni yigitlik shaniga isnod bilib o'z joniga qasd qiladi. Solihning sadoqatli ayoli Rahima ham bo'lgan voqealarda o'zini va otasini aybdor sanab, u ham o'z joniga qasd qiladi. Asar so'ngida ellikboshi Fayziboyga bu hodisa sababini so'raydi va o'zi quyidagicha javob beradi: "Men sizg'a sababini aytсам, sizni bekor shari'atdan tashqari to'y qilub, kuyovingizdan ko'b oqcha olub, qarzdor qilganingiz sabab bo'ldi. O'shal vaqtda men sizg'a aytdim, bekor isrof qilmang, kuyovingizdan ko'b oqcha so'ramang, yurtka obro' qilaman deb, osh-non berub, Xudo va rasulning buyrug'laridan chiqmang, dedim. Siz meni so'zimni quloqg'a olmadingiz va shari'atg'a bo'yunsunmadingiz va meni beobro' qildingiz, mana kuyovingiz qarzdor bo'lgan ekan, mulk-ashyodan va shirin jondan ajrabdir. Siz ham joningizdin, shirin qizingizdin ajraldingiz. Bu dunyoda ko'rgan g'am sizg'a g'am emas, mahshar kuni Xudovandi karim oldida itobg'a qolmog'ingiz emdi uyog'da turubdir." Asarda xulosani ham ellikboshi nutqidan keltiriladi "(Xalqqa qarab) Sizlar ham shundoq isrof qilmoqdasiz. Isrofning ziyorini ko'rdingizlar, Fayziboydan ibrat olinglar, ko'rdingizlarmi, isrof qilub, oxiri holi nima bo'ldi? Shari'ati mustafog'a bo'yunsuninglar, endi ko'zlaringizni ochinglar. Bid'at to'yg'a isrof bo'ladurgan oqchag'a o'g'lingizlarni o'qutinglar, yoki jamiyati xayriyag'a iona qilinglar. O'g'ul o'qutmoq yaxshi ham farzdur, to'yg'a isrof qilmoq bid'atdur. Ko'rinib turgandek, dramada jamiyatdagi ilmsizlik, qoloq odatlarning davom etishi qoralanadi. Dramadagi muammo bugungi kun uchun ham dahldorligi bilan xarakterlidir. Asarning Turkiston hayotidan olingan mavzu bilan Qodiriy "Bizda teatr ishining borishi" maqolasida qo'yilgan talabga o'zi javob beradi. "Turkistonning boshqa go'shalariga ko'ra bizim Toshkand yoshlari orasida ko'brak ko'rildi. Bir nechalarini istisno ila, o'z imlosin to'g'irlab yoza olmag'anlar, "dramaturg", "komik", hatto "operator" bo'lib maydonga chiqdilar-da ("tragediya"ni yozmag'anlarig'a ham shukr qilasan endi!)" fikrlari o'zining sahna asari orqali namuna bo'la oladi.

Habibullo Qodiriyning "Otam haqida" asarida "Teshaboy yamoqchi bilan Oynisa boyvuchcha" nomli bir ko'rinishli komediya sahna asari haqida so'z boradi. Asar qahramonlari Teshaboy yamoqchi va xotini Oynisa yo'qsillikda kun kechirishadi. Yamoq bilan shug'ullanayotgan Teshaboy eski mahsi ichidan tugunchada tilla tangalar topib oladi. Kambag'al oilaning hushi boshidan uchadi. Teshaboy bitta tillani olib, qolganlarini joyiga yashirib bozorga yuguradi. Shu vaqt tilanchi keladi va o'zini "boyvuchcha" sanagan Oynisa eski-tuski yamoq poyabzallarni tilanchiga berib yuboradi. Bozordan kelgan Teshaboyga qilgan ishini aytib maqtanadi. Rangi o'chgan yamoqchi tillalarni qidira boshlaydi. Tilanchini ham tillalarni ham topa olmagan Teshaboy va Oynisa aqildan ayrilib, o'sal holatda devorga tirmashadilar. Komediyaning mag'zi "Dunyoi tez-baqoi nest" (Tez kelgan davlat

bebaqodir) hikmatli so'zini olg'a surishdir.[6] Taxminlarga ko'ra Qodiriyning bu asari 1916-1917 yillarda yozilgan.

Abdulla Qodiriyning "Eski shahar teatr havaskorlarig'a" maqolasida teatr ishlari tanqid ostiga olinadi. Sanoyi nafisa bo'lgan teatr xalq uchun ibratxona bo'lishi, unda safsata, yengil ishlarga o'rin yo'qligi va noahil kishilar qo'lida bir o'yinchoq bo'layotganligi ta'kidlanadi va tavsiyalar beriladi.

Jumladan, sahnalashtiriladigan asarlar kerakli mutaxassislar ishtirokida tetrlashtirilmasdan avval "Artistlar sayuzi"da muhokama etilishi, havaskor ijrochilar repititsiyasi o'tkazilishi talab etiladi.

XULOSA

Qodiriyning sahna asarlariga jiddiy yondashuvi teatr saviyasi va uning umumiy konseptual asoslarini yoritish, qolaversa, "xalq ko'zgusi"ning xira tortmasligi uchun bo'lgan harakatlardir. Turkiston yoshlariga teatr ishlarining yorqin kelajagini tilaydi, orzu qiladi. O'zini bu kasb "ahlidanman" deya burchli his etadi. Qodiriyning tilagi ham quyidagicha edi: "Yoshlarimizning tarbiya yeri maktab bo'lsa, kattalarimizniki teatrulardir.

Kattalarimizning maktabi yozuvchilik, pedagoglarning yozdiqlari darslar. Fantaziya, uydirmalar bo'lmasin. Turmushimizni aksi- usta rassom tomonidan oling'an aks bo'lsun, - deyman"

Ko'rinadiki, A.Qodiriy teatr san'atining rivojiga munosib hissa qo'shgan buyuk adiblardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent : Akademnashr. 2013 93-bet
2. A.Qodiriy. Diyori bakir. – Toshkent: Info Capital Group. (3 tom) 2017. 98 bet
3. Edvort Olvort. Birinchi o'zbek dramasi // Ingliz tilidan Zulxumor Mirzaeva tarjimasi "Jahon adabiyoti" jurnali, 2009 yil, 9-son.
4. A.Qodiriy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq nashriyoti
5. H.Qodiriy Otam haqida. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.1983.
6. Юлдашева Д.М. Pedagogical Features Of Mental Development Of Preschool Children. Solid State Technology.Volume: 63 Issue:6 Publication Year:2020. 14221-14225.
7. Юлдашева Д.М.Anthropocentric Approach To Children'S Speech Study. Section 2: Linguistics Theory,Applied Linguistics. Collection Of Materials Of The International Online Conference.Www.Research-Support-Center.Com 2020.92-95
8. Юлдашева Д.М. The Methods Of Speech Development Of Preschool Children. Epra Internashinal Jurnal Of Multidisciplinary Research(Ijmr). Impact Factor: 7.6.11.November.